DORIVOR GULXAYRI (ALTHAEA OFFICINALIS) O‘SIMLIGINING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI VA SHIFOBAXSH AHAMIYATI

Mengziyoyeva Dildora
DTPI Biologiya yo‘nalishi talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.15613594

Annotatsiya. *Ushbu tezisda dorivor gulxayri (Althaea officinalis L.) o‘simligining biologik xususiyatlari va uning shifobaxsh ahamiyati yoritilgan. O‘simlikning tashqi tuzilishi, o‘sish sharoitlari, kimyoviy tarkibi hamda tibbiyotda qo‘llanilish holatlari tahlil qilingan. Ayniqsa, gulxayri ildizidagi polisaxaridlar, shilliq modda va boshqa biologik faol birikmalarning inson salomatligiga foydasi alohida o‘rganilgan. Tadqiqotda bu o‘simlikdan tayyorlanadigan dorivor vositalar, jumladan "Mukaltin" preparati, uning yo‘tal va nafas yo‘llari kasalliklarida samaradorligi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Tezis dorivor o‘simliklar asosida tabiiy dori vositalari ishlab chiqishning dolzarbligini asoslaydi.*

Kalit so'zlar: *dorivor gulxayri, biologik faol moddalar, polisaxaridlar, shifobaxsh o‘simlik, mukaltin, balg‘am ko‘chiruvchi, yallig‘lanishga qarshi, o‘simlik preparatlari, farmakognoziya.*

Аннотация. *В данной тезисной работе рассмотрены биологические особенности и лечебное значение лекарственного алтейника (Althaea officinalis L.). Описаны морфологические признаки растения, условия произрастания, химический состав и сферы его применения в медицине. Особое внимание уделено активным веществам, содержащимся в корнях и надземных частях растения, таким как полисахариды, слизистые вещества и флавоноиды. Приведены сведения о лекарственных средствах на основе алтейника, включая препарат «Мукалтин», применяемый при заболеваниях дыхательных путей. Работа подчёркивает актуальность использования лекарственных растений в современной фармацевтике и необходимость дальнейшего изучения их свойств.*

Ключевые слова: *лекарственныйалтей, биологически активные вещества, полисахариды, лекарственные растения, мукалтин, отхаркивающее средство, противовоспалительное действие, растительные препараты, фармакогнозия.*

Annotation. *This thesis explores the biological characteristics and medicinal significance of the marshmallow plant (Althaea officinalis L.). It discusses the plant’s morphological features, growing conditions, chemical composition, and its applications in medicine. Special attention is given to the biologically active compounds found in the roots and aerial parts of the plant, such as polysaccharides, mucilaginous substances, and flavonoids. The work highlights medicinal preparations derived from the plant, particularly “Mukaltin,” which is widely used to treat respiratory diseases. The study emphasizes the importance of medicinal plants in modern pharmacology and the need for further research into their therapeutic properties.*

Keywords: *marshmallow plant, althaea officinalis, biologically active compounds, polysaccharides, medicinal plant, mukaltin, expectorant, anti-inflammatory effect, herbal preparations, pharmacognosy.*

Kirish. Gulxayri (Althaea) — gulxayridoshlarga mansub bir yillik va ko‘p yillik o‘tlar turkumi. Yevropa va Osiyoning o‘rta mintaqalarida 12 turi o‘sadi. O‘zbekistonda gulning bitta ekma va 7 ta yovvoyi turi bor. Gulxayridoshlar to‘qaylarda, sug‘oriladigan maydonlarda va boshqa yerlarda uchraydi. Gullari to‘g‘ri, 5 bo‘lakli, ikki jinsli. Gulxayri guli dorivor, manzarali o‘simlik, undan bo‘yoq olinadi. O‘zbekistonda Gulxayrining Althaea rosea turi manzarali va dorivor o‘simlik sifatida ko‘p ekiladi. Poyasi 1,5—2 m, yo‘g‘on, tuklar bilan qoplangan. Barglari 3—7 bo‘lakli, uzun bandli. Gullari yakka-yakka yoki 2—3 tadan barg qo‘ltig‘ida va poya ichida o‘rnashgan. Tojbarglari qat-qat joylashgan. Iyun—avgustda gullab, iyul—sentabrda urug‘laydi. Tojbarglaridan vino, sirka va bargga rang berishda hamda teri, shoyi va jun kabilarni bo‘yashda foydalaniladi. Gulxayrining A. Offi cinalis turi dorivor o‘simlik sifatida tibbiyotda foydalaniladi. Uning ildizidan tayyorlangan suyuq ekstrakt nafas yo‘llari kasalliklarida (ayniqsa bolalarda) balg‘am ko‘chirish, ko‘krakni yumshatish uchun va yallig‘lanishga qarshi, me’da-ichak kasalliklarida esa o‘rab oluvchi dori sifatida ishlatiladi**.**



1-rasm .Dorivor gulxayrining gullari

Bu o‘simlikning ildizlari va yer ustki qismlari dorivor moddalarga boy. Tarkibida polisaxaridlar, shilliq modda, kraxmal, flavonoidlar, pektin va boshqa biologik faol birikmalar mavjud. Aynan shu tarkibi tufayli gulxayri yallig‘lanishga qarshi, yumshatuvchi va balg‘am ko‘chiruvchi xususiyatlarga ega.Gulxayri o‘simligining tarkibida juda ko‘p foydali moddalar bor . Chunonchi gulxayrining ildizida 35 % gacha shilliq moddalar, 37 % gacha kraxmal, 16 % ga yaqin qand, asparagin, betain, pektin, yog‘, 4,9 % atrofida mineral tuzlar mavjud. O‘simlikning barg hamda gullarida 0,02 % ga yaqin qattiq efir moyi, karotin, vitamin C, ildizlardagiga qaraganda ikki marta kam shilliq moddalar bor.

Gulxayridan tayyorlanadigan dorivor vositalar — damlama, sirop, malham va ayniqsa, "Mukaltin" tabletkasi orqali nafas yo‘llari kasalliklarida, bronxit va anginada muvaffaqiyatli qo‘llaniladi. Shuningdek, oshqozon-ichak yallig‘lanishlarida, gastrit va enterokolitda ham foydali hisoblanadi.Dorivor gulxayrining asosan ildizi va yer ustki qismi dorivor qiymatga ega. Ular quyidagi biologik faol moddalarni o‘z ichiga oladi:Shilliq modda – yumshatuvchi va himoyalovchi xususiyat beradi polisaxaridlar – immun tizimni mustahkamlaydi, balg‘amni yumshatadi flavonoidlar – yallig‘lanishga qarshi ta’sir ko‘rsatadi kraxmal, pektinlar, organik

kislotalar – oshqozon-ichak faoliyatiga ijobiy ta’sir qiladi taninlar – antiseptik va bog‘lovchi ta’sirga ega.

Xulosa. Dorivor gulxayri — tabiat bergan noyob shifobaxsh o‘simliklardan biri. U o‘zining kimyoviy tarkibi va dorivor xususiyatlari bilan xalq tabobati hamda farmatsevtikada muhim o‘rin egallaydi. Uning asosida ishlab chiqilgan tabiiy dori vositalarining xavfsizligi va samaradorligi tufayli, bu o‘simlikni chuqur o‘rganish, ko‘paytirish va amaliyotga keng joriy etish dolzarb hisoblanadi.